



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK
VA JAMOAT SALOMATLIGI XIZMATI BOSHLOG‘INING**

BUYRUG‘I

2022 yil. “ 16 ” апрел

№ 30

Toshkent sh.

**“Aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish
va mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni amalga oshirish
jarayonida faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish
tizimini joriy etish haqida”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 18-mart kuni tibbiyot xodimlari bilan o‘tkazilgan “O‘zbekiston tibbiyoti - inson qadri uchun” mavzusidagi uchrashuvda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - Sanitariya-epidemiologiya xizmati) xodimlari tomonidan aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish tizimini joriy etsih va mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish maqsadida, **buyuraman**:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan “ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-33-sonli Farmoyishi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida shaffof tizim faoliyatini tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar 1-ilovaga muvofiq;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari tomonidan aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish va mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish kategoriyasi 2-ilovaga muvofiq;

aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish jarayonida xodimlarning ishtirok etish darajasini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga;

aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish jarayonida xodimlarning ishtirok etish darajasini o‘rganish bo‘yicha hududiy boshqarma va

tuman (shahar) bo'limlari ishchi guruhi tarkibining namunaviy shakli 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining barcha tarkibiy muassasalari rahbarlari:

Bir hafta muddatda:

buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida shaffof tizim faoliyatini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar barcha xodimlar ishtirokida o'tkaziladigan jamoa yig'ilishida o'qib eshittirilib, Sanitariya-epidemiologiya xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffof tizim tashkil etish va masalaning dolzarbligini har bir xodim e'tiboriga yetkazilishi;

xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muntazam nazorat olib borilishi ta'minlansin.

4. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari boshliqlari:

Bir hafta muddatda:

buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari tomonidan aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish va mazkur yo'nalishdagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etgan xodimlarni rag'batlantirish kategoriyasini barcha tuman (shahar) bo'limlari jamoa yig'ilishida batafsil tushuntirilishi;

bir hafta muddatda: buyruqning 4-ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy shakl asosida Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarining aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish jarayonida ishtirok etish darajasini o'rganish bo'yicha hududiy va tuman (shahar) darajasidagi ishchi guruhlar tarkibi idoraviy buyruq asosida tasdiqlanishi;

mazkur faoliyat bo'yicha har oy yakunida a'lo va yaxshi ko'rsatkich olgan xodimlarni o'rnatilgan tartibda moddiy rag'batlantirish choralari ko'rilishi;

hududiy ishchi guruhlar xulosasiga ko'ra, har chorak yakuni bo'yicha ko'krak nishonlari va davlat mukofotlariga tavsiya etiladigan xodimlar ro'yxati o'rnatilgan tartibda, asoslovchi materiallar asosida Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga taqdim etib borilishi;

amalga oshirilgan ishlar bo'yicha umumiy ma'lumotni joriy yilning 23-aprel kuni soat 16-00ga qadar olga.mirshina@minzdrav.uz elektron manzili orqali Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga yuborilishi ta'minlansin.

5. Belgilansinki, Sanitariya-epidemiologiya xizmatining tuman (shahar) bo'limlari xodimlari tomonidan aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish bo'yicha ishtiroki yuzasidan taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgarlik Sanitariya-epidemiologiya xizmatining hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari shaxsan javobgar hisoblanadilar.

6. Boshliqning birinchi o‘rinbosari (X. Norboev), o‘rinbosarlar (N. Atabekov, B. Qurbonov, Q. Hayitov):

mazkur buyruq bilan belgilangan vazifalarning tegishli muddatlarda ijrosi ta‘minlanishi bo‘yicha muntazam nazorat olib borilishi va xodimlarning mas‘uliyati hamda javobgarligi oshirilishi;

joylarda amalga oshirilayotgan ishlar har haftada muhokama qilinib, natijasi yuzasidan rahbariyatga tegishli takliflar kiritib borilishi ta‘minlansin.

7. Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi (M.Saidova), Axborot-kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘limi (J.Omonov):

buyruq bilan belgilangan vazifalardan kelib chiqib amalga oshiriladigan ishlar Sanitariya-epidemiologiya xizmatining rasmiy veb-sayti hamda ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borilsin.

Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazorat boshliqning birinchi o‘rinbosari X. Norboev va o‘rinbosar N. Atabekov zimmasiga yuklansin.

Boshliq



B. Yusupaliev

O‘zbekiston Respublikasi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi xizmatining
2022-yil “16” apreldagi
30-sonli buyrug‘iga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida
2022-yil 18-mart kuni tibbiyot xodimlari bilan o‘tkazilgan “O‘zbekiston tibbiyoti -
inson qadri uchun” mavzusidagi uchrashuvda belgilangan vazifalardan kelib chiqib,
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatida shaffof tizim
faoliyatini tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan

VAZIFALAR

So‘nggi yillarda Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga alohida e‘tibor
qaratilib, bir qator ishlar amalga oshirildi:

Xususan, koronavirus pandemiyasi davrida Sanitariya-epidemiologiya
xizmatini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar
asosida Sanitariya-epidemiologiya xizmatining yaxlit tizimi shakllantirildi, vazifa
va funksiyalari, huquqlari va javobgarlik darajasi kengaytirildi.

Qabul qilingan farmon va qarorlar doirasida Sizlar bilan birgalikda tizimda
qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining 14 ta hududiy boshqarmalari va 206
ta tuman (shahar) bo‘limlariga rahbar kadrlar maxsus tuzilgan komissiya
tomonidan tanlab olindi va lavozimlarga tayinlandi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati hududiy boshqarmalari va tuman (shahar)
bo‘limlari to‘g‘risida nizomlar, lavozim yo‘riqnomalari va xodimlarning vazifalar
taqsimoti ishlab chiqildi;

respublikadagi tibbiyot oliygohlarining 7 tasida tibbiy-profilaktika
fakultetlari tashkil etildi;

tibbiy-profilaktika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni amaliyotga
moslashtirish, Sanitariya-epidemiologiya xizmatining markaziy apparati, hududiy
boshqarmalari va ayrim tuman (shahar) bo‘limlarida o‘quv-amaliyot bazalari
tashkil etildi;

xalqaro talablardan kelib chiqib, ta‘lim, qurilish, oziq-ovqat va boshqa sohalar
bo‘yicha 30 dan ortiq sanitariya qoida va me‘yorlari xalqaro andozalarga mos
ravishda yangi tahrirda qabul qilindi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining ilmiy salohiyatini rivojlantirish
maqsadida, faoliyat yuritayotgan fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajalari
bo‘lgan xodimlar oylik lavozim maoshiga qo‘shimcha ravishda Davlat budjeti
mablag‘lari hisobidan 30 foizdan 60 foizgacha bo‘lgan ustamalar to‘lanishi yo‘lga
qo‘yildi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot institutlarini
moliyalashtirish davlat budjeti hisobiga o‘tkazildi;

xalqaro hamkorlik doirasida Germaniyaning Robert Kox, Fransiyaning Lui Paster institutlari, Rospotrebnadzor, KOICA, CDC kabi tashkilotlar bilan Sanitariya-epidemiologiya xizmati o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi;

Milliy referens laboratoriyasi ishga tushirildi. Respublika bo'yicha 170 dan ortiq zamonaviy apparatlar bilan jihozlangan polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) usulida tahlil o'tkazishga ixtisoslashgan virusologik laboratoriyalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Sanitariya-gigiena va epidemiologiyaning dolzarb masalalari bo'yicha 28 nafar mustaqil izlanuvchi tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, 6 ta grant loyihalari bugungi kunda amalga oshirib kelinmoqda.

Kelgusida Sanitariya-epidemiologiya xizmatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida 243,4 mln. dollarlik 5 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi va Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infrotuzilmaviy investitsiyalar bankining 165 mln dollar kredit mablag'lari hisobiga 263 ta muassasalarning moddiy-texnik bazasini yangilash, kadrlar salohiyatini oshirish hamda tizimda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Bunday e'tibor Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga avval berilmagan va bu sohaga nisbatan davlatimiz rahbari tomonidan ko'rsatilayotgan yuksak ishonchning dalili hisoblanadi.

Sohada bugungi kungacha amalga oshirilgan islohotlar bilan bir qatorda, kelgusida oldimizda amalga oshirilishi zarur bo'lgan, ijrosini kechiktirib bo'lmaydigan istiqbolli vazifalar ham turibdi. Bu vazifalarni hamjihatlikda, birdamlikda, halol hamda qonun ustuvorligi ruhida amalga oshirishimiz uchun barchamizdan mas'uliyat va javobgarlik talab etiladi.

Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiya va poraxo'rlikdir.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati uchun soha taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bir davrda sohada uchraydigan korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishga olib keladi.

Shu boisdan ham davlatimiz rahbari Mirziyoev Shavkat Miromonovich o'z vakolatiga kirishishi bilan korrupsiyaning oldini olishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi va buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan bir qator davlat organlari va tashkilotlari jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga mas'ul ekanligi belgilandi.

Mazkur qonun ijrosini ta'minlash maqsadida jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashishni amalga oshirish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi,

shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirildi.

Albatta, bajarilgan ishlar salmoqli. Ammo biz kechagi qilgan ishimizning natijasiga mahliyo bo‘lib qolsak, ertangi ishimizning yakuni biz kutganchalik bo‘lmasligi mumkin.

Sohada salmoqli natijalarni qayd etish uchun aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta‘minlash, sohada korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha tizimli choralarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa‘y-harakati bilan yo‘q qilib bo‘lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo‘q qilishga kirishsagina, ijobiy natijaga erishish mumkin.

Ma‘lumki, Sanitariya-epidemiologiya xizmatining 2021-yil 24-iyuldagi 89-sonli buyrug‘i bilan xizmatning korrupsiyaga qarshi siyosati tasdiqlandi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining 2021-yil 16-avgustdagi 98-sonli buyrug‘i qabul qilindi va mazkur buyruq bilan Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning tarkibiga kiruvchi tarkibiy muassasalarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat guruhi tashkil etildi.

Oldimizda turgan maqsadlardan biri bu - Sanitariya-epidemiologiya xizmatini korrupsiyasiz tizimga aylantirish hisoblanadi va shu maqsadda quyidagi vazifalarni o‘zimizga dasturil-amal qilib belgilab olishimiz shart:

o‘z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarish;

o‘z mansab va xizmat mavqeidan, tashkilot tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmaslik va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanish;

har bir xodimda barcha sohalarda korrupsiyaning har qanday shakllari va ko‘rinishlariga murossasiz (toqatsiz) munosabatda bo‘lish, nafrat tuyg‘usini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo‘lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishni qat‘iy taqiqlash;

korrupsiyaga olib keluvchi, korrupsiyaga undovchi har qanday faoliyat, harakatni bartaraf etish;

korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etgan xodimlarga nisbatan o‘z mavqei va egallab turgan lavozimidan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu qonunchilik asosida qabul qilingan ichki normativ hujjatlarga muvofiq qat‘iy choralar ko‘rish;

har bir xodimda korrupsiyaviy harakat sodir etilganiga doir ishonchli va asosli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda, ularning rahbariyatga to‘siqsiz murojaat qilishiga imkoniyat yaratish;

soha rivoji uchun zarur bo‘ladigan tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarni amalga oshirishda ta‘minotchi korxonalar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof tartibini joriy etish;

xodimlarni tanlash, attestatsiyadan o'tkazish va ularning faoliyatini baholash, barcha xodimlar uchun rag'batlantirishning shaffof, teng huquqli va xolis bo'lishini ta'minlash;

turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda xodimlarning xulq-atvor, odob-axloq tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik bo'yicha amaliy harakatlarni olib borish va bu holatni har bir xodim ongiga singdirib borish;

korrupsiya va unga olib keluvchi holatlar to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimning haq-huquqlari himoya qilinib, faol xizmatlari uchun rag'batlantirish choralarini ko'rish;

jamoatchilik nazoratini olib borishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirishda salmoqli hissa qo'shish.

Shuningdek, mazkur vazifalarni amalga oshirishdagi eng asosiy masalalar bo'lib, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilish, kadrlarning mazkur yo'nalishdagi dunyoqarashini o'zgartirgan holda, sohaga ishga qabul qilinayotgan yosh kadrlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish va shaffof yo'nalishda faoliyat yuritishi bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

Ko'rinib turibdi-ki, maqsad, reja va vazifa aniq, huquqiy asoslar yaratildi, endi har bir rahbar xulosa qilib, o'z vazifalarini vijdonan va to'laqonli ado etishi talab etiladi.

Vaholanki, bugun har bir xodim xulq-atvoriga O'zbekiston Respublikasi qonunlariga bo'ysunish va ularni hurmat qilish odobini singdirib borish o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

Tizimda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslar to'g'risida asoslantirilgan ko'rsatuvlar, eshittirishlar tashkil qilish, maqolalar chop etib borish, ularning qilmishi noto'g'ri ekanligini ta'sirchan vositalar orqali ko'rsatib berish, albatta, o'z samarasini beradi.

HURMATLI HAMKASBLAR!

Xalqimiz halollik, rostgo'ylik va ahillik hamda ibrat namunalari bilan dunyo mamlakatlarini lol qoldirgan. Negaki, kishilarimiz azal-azaldan turmushning go'zalligi, oilaning fayz-u barakasi, dasturxonning to'kinligini halollik tufayli deb bilganlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jamiyatda adolatli tizim mavjudligi, barchaning qonun oldida tengligi fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim hisoblanadi. Adolat ustuvor bo'lgan tizimda esa taraqqiyot va islohotlar samarasi beqiyos bo'ladi.

Xalqimizda, "Birniki mingga, mingniki tumanga" degan qadimiy naql bor. Buning ma'nosi shuki, bitta insonning sog'lom harakati va shaffof turmush go'zalligi boshqa xodimlarga ham ibrat ko'zgusi bo'ladi.

Shuning uchun hurmatli hamkasblar, bir tan bir jon bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashishimiz lozim bo'ladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi xizmatining
2022-yil “16” apreldagi
30-sonli buyrug‘iga
2-ilova

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari tomonidan aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish va mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish

KATEGORIYASI

№	Ragbatlantirishga asos bo‘luvchi talablar	Maksimal baholash (ball)	A‘lo	Yaxshi	Qoniqarsiz
1.	Xonadon atrofi obodonlashtirilganligi <i>(atrofi o‘ralganligi, binoning tashqi fasad qismi va devorlari oqlanganligi, darvozalari bo‘yalganligi)</i>	5			
2.	Xonadondagi molxona, tovuqxona, it va mushuklarni saqlash xonalarini joylashtirilishi va tozaligi	5			
3.	Mahalla, aholi xonadonlari hududida maishiy va chorva mollari chiqindilarini vaqtincha to‘plash joylarining holati, olib ketish mexanizmi yaratilganligi yoni undan shaxsiy tomorqalarda samarali foydalanilishi	5			
4.	Hojatxonaning joylashtirilishi va tozaligi	5			
5.	Mahalla va xonadonda hammom yoki yozgi dush tashkil etilganligi	5			
6.	Yashash xonalari va oshxonaning sanitariya holati	5			
7.	Uy hayvonlari va chorva mollarini har xil yuqumli kasalliklarga qarshi emlatilganligi	5			
8.	Uy hayvonlarini saqlash va parvarishlashda veterinariya mutaxassislariga murojaat qilish, hayvonlarni doimiy veterinariya ko‘rigidan o‘tkazib borish, profilaktik emlatish, cho‘miltirish, molxonalar va tovuqxonalarni mavsumiy dezinfeksiya qilish, tozalash ishlarini tashkil etish bo‘yicha veterinariya-gigenik ko‘nikmalarni mavjudligi	5			

9.	Mahalla, ko'cha va boshqa joylarda daydi itlarni qarovsiz yurish holati	5			
10.	Bolalarni virusli gepatitning A turiga qarshi emlanganligi	5			
11.	Uyda konserva mahsulotlarini tayyorlanishi mumkin emasligi to'g'risida tibbiy savodxonlik mavjudligi	6			
12.	Xonadon ahlining sog'lom turmush tarzi tamoyillariga rioya etishi <i>(to'g'ri ovqatlanish, tamaki va spirtli ichimliklar iste'mol qilmaslik, yurish, yugurish, sport bilan shug'ullanish)</i>	6			
13.	Kundalik hosil bo'ladigan chiqindilarni yo'q qilish tartibi tashkil etilganligi	5			
14.	Xonadonga hovli, bog', tomorqa, tegishli hududlarning sarishtaligi va obodonlashtirilganligi	5			
15.	Uy sharoitida boqilayotgan itlar, mushuklarni quturish kasalligiga qarshi emlanganligi	5			
16.	Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik emlash qamrovi darajasi	6			
17.	Xonadondagi oshxona, tandirxona, o'choqxonalarni sanitariya holati, devorlari oqlangan, bo'yalganligi, dudburonlar o'rnatilganligi	5			
18.	Oziq-ovqat mahsulotlari, ayniqsa tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sharoitlari yaratilganligi	6			
19.	Suv ta'minotining holati <i>(tashib keltirilgan suvlarni saqlash sharoiti, beton sig'imli quduqlar, suv idishlarini sanitariya holati, suv saqlash uchun mo'ljallangan idishlarda saqlanishi)</i>	6			
Umumiy ball		100			

Izoh: Mazkur kategoriyada keltirib o'tilgan talablar mahallabay ishlash tizimini amalga oshirish bo'yicha belgilangan vazifalarda nazarda tutilgan;

to'plangan ballar 3 ta ko'rsatkichda **a'lo (86-100 ball)**, **yaxshi (65-85 ball)**, **qoniqarsiz (65 dan past ball)** baholanadi va biriktirilgan xodimning faol mehnati uchun qo'shimcha rag'batlantiriladi, eng faol xodimlar (O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi faxriy unvoni, Sog'liqni saqlash a'lochisi ko'krak nishoni) va boshqa davlat mukofotlariga tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi xizmatining
2022-yil “16” apreldagi
30-sonli buyrug‘iga
3-ilova

Aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish jarayonida xodimlarning
ishtirok etish darajasini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhi

TARKIBI

Ishchi guruh rahbari			
1.	Yusupaliev Bahodir Qahramonovich	-	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig‘i.
Ishchi guruh a‘zolari:			
2.	Norboev Xolmamat Nuralievich	-	Boshliqning birinchi o‘rinbosari;
3.	Atabekov Nurmat Satiyozovich	-	Boshliq o‘rinbosari;
4.	Qurbonov Botirjon Jo‘raboevich	-	Boshliq o‘rinbosari;
5.	Hayitov Qobiljon Isoqulovich	-	Boshliq o‘rinbosari;
6.	Mustafaev Xayrulla Murtozoevich	-	Boshliq maslahatchisi;
7.	Ikramov Rustam Niyazovich	-	Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig‘i;
8.	Shukurov Anvar Najmiddinovich	-	Sanitariya-gigiena boshqarmasi boshlig‘i;
9.	Anvarova Latofat Usmanovna	-	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i;
10.	Tashbaev Nuriddin Sarayevich	-	Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil bo‘limi boshlig‘i;
11.	Tadjiev Botir Mirxashimovich	-	Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori;
12.	Musabaev Erkin Is‘hakovich	-	Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori;
13.	Kamilova Roza Talanovna	-	Sanitariya, gigena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti direktori;

14.	Saidaliev Saidmurod Saidganievich	-	Respublika o'lat profilaktikasi markazi direktori;
15.	Yuldashev Qahramon Xaldarovich	-	Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi direktori.
Ishchi guruh mas'ul kotibi			
16.	Jumabaeva Ra'no Xolmirzaevna	-	Sanitariya-gigiena boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

***Izoh:** Xodim lavozimdan ozod etilganda yoki boshqa lavozimga o'tkazilganda, uning o'rniga tayinlangan xodim ishchi guruh a'zosi hisoblanadi. Zaruratga ko'ra ishchi guruhga boshqa mutaxassislar qo'shimcha kavishda jalb yetilishi mumkin.*

O'zbekiston Respublikasi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi xizmatining
2022-yil "16" apreldagi
30-sonli buyrug'iga
4-ilova

Aholi xonadonlarini sanitariya jihatidan takomillashtirish jarayonida xodimlarning
ishtirok etish darajasini o'rganish bo'yicha hududiy boshqarma va tuman (shahar)
bo'limlari ishchi guruhi tarkibining namunaviy

SHAKLI

Ishchi guruh rahbari			
1.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Boshqarma, tuman (shahar) bo'limi boshlig'i
Ishchi guruh a'zolari:			
2.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Boshliqning birinchi o'rinbosari;
3.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Boshliqning epidemiologiya masalalari bo'yicha o'rinbosari;
4.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Boshliqning sanitariya-gigiena masalalari bo'yicha o'rinbosari;
5.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil bo'limi boshlig'i;
6.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i;
7.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Sanitariya-gigiena bo'limi boshlig'i;
8.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Nazoratlarni muvofiqlashtirish va ma'muriy amaliyot bo'limi boshlig'i;
9.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Kadrlar bo'limi boshlig'i;
10.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Yuridik bo'limi boshlig'i;
11.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Kasaba uyushmasi raisi;
Ishchi guruh mas'ul kotibi			
12.	<i>(Lavozim bo'yicha)</i>	-	Sanitariya-gigiena bo'limi yetakchi mutaxassisi.

Izoh: Xodim lavozimdan ozod etilganda yoki boshqa lavozimga o'tkazilganda, uning o'rniga tayinlangan xodim ishchi guruh a'zosi hisoblanadi. Zaruratga ko'ra ishchi guruhga boshqa mutaxassislar qo'shimcha kavishda jalb yetilishi mumkin.